



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

BOJXONA TIZIMIDA KADRLAR SIFATINI OSHIRISH VA BOSHQARISH STRATEGIYALARI

Rustamov Voxidjon Arashovich

Bojxona qo‘mitasi Inson resurslarini rivojlantirish
va boshqarish boshqarmasi bosh inspektori

e-mail: vrustamov1988@umail.uz

Annotatsiya:

Mazkur tezisda bojxona tizimida inson resurslari sifatini rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari tahlil qilinadi. Unda bojxona organlarida kadrlar salohiyatini oshirish, xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida bojxona tizimida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur tezis natijalari bojxona organlarida inson resurslarini samarali boshqarish tizimini rivojlantirish hamda xizmat faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: bojxona organlari, inson resurslari, kasbiy rivojlanish, xorijiy ta’lim muassasalari, magistratura, pul ta’minoti, o‘qish davri.

СТРАТЕГИИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПЕРСОНАЛА И УПРАВЛЕНИЯ В ТАМОЖЕННОЙ СИСТЕМЕ

Рустамов Вохиджон Арашович

Главный инспектор Управления по развитию и управлению
человеческими ресурсами Таможенного комитета

e-mail: vrustamov1988@umail.uz.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Аннотация:

В данном тезисе анализируются современные стратегии развития качества человеческих ресурсов в таможенной системе. В нем освещаются вопросы повышения кадрового потенциала таможенных органов, развития профессиональных компетенций сотрудников, а также внедрения эффективных механизмов управления. В ходе исследования выявлены существующие проблемы в таможенной системе и разработаны практические предложения и рекомендации по их устранению. Результаты данного тезиса направлены на развитие эффективной системы управления человеческими ресурсами в таможенных органах и повышение эффективности служебной деятельности.

Ключевые слова: таможенные органы, человеческие ресурсы, профессиональное развитие, зарубежные образовательные учреждения, магистратура, денежное обеспечение, период обучения.

STRATEGIES FOR IMPROVING THE QUALITY OF PERSONNEL AND MANAGEMENT IN THE CUSTOMS SYSTEM

Rustamov Voxidjon Arashovich

Chief Inspector of the Human Resources Development and Management

Department of the Customs Committee

e-mail: vrustamov1988@umail.uz.

Abstract:

This thesis analyzes modern strategies for developing the quality of human resources in the customs system. It highlights issues related to enhancing the personnel potential of customs authorities, developing employees'



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

professional competencies, and implementing effective management mechanisms.

During the research, existing problems in the customs system were identified, and practical proposals and recommendations for addressing them were developed. The results of this thesis aim to improve the effective human resource management system in customs authorities and enhance the efficiency of service activities.

Keywords: customs authorities, human resources, professional development, foreign educational institutions, master's degree, financial support, period of study.

Kirish

Zamonaviy sharoitda davlat boshqaruvi tizimida, xususan bojxona xizmatida inson resurslarining sifati va salohiyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globalizatsiya jarayonlari, xalqaro savdo hajmining ortishi hamda texnologik rivojlanish bojxona organlari oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Shu sababli, bojxona tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirish, ularning kompetensiyalarini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bojxona xizmatida inson resurslari sifatini oshirish nafaqat xizmat samaradorligini, balki davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish zamonaviy boshqaruvning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Mazkur tezisda bojxona xizmatida inson resurslari sifatini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari, xodimlarning kompetensiyasini oshirish bo'yicha strategik yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Bojxona xizmatida inson resurslari sifatini oshirish jarayonida magistratura mutaxassisligi bo'yicha xodimlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy bojxona tizimi yuqori malakali, chuqur nazariy bilimga ega hamda amaliy ko'nikmalari rivojlangan mutaxassislarni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, magistratura bosqichida o'qitish xodimlarning ilmiy salohiyatini oshirish, strategik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va murakkab boshqaruv vazifalarini samarali hal etish imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 18-moddasiga asosan bojxona organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning huquqiy asoslari yaratilgan hamda ushbu jarayonlar Bojxona instituti va Respublikaning boshqa ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Bojxona instituti bojxona organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tayanch oliy harbiylashtirilgan ta'lim hamda ilmiy-metodik muassasa hisoblanib, bojxona organlari uchun bazaviy kadrlarni tayyorlab kelmoqda.

Institutda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3995-son qarori asosida 4 yillik ta'lim muddatini o'z ichiga olgan bakalavriat hamda 1 yillik ta'lim muddatidan iborat magistratura mutaxassislari bo'yicha kursant va tinglovchilar o'qitiladi.

Magistratura ta'limi xodimlarga bojxona sohasidagi qonunchilikni chuqur o'rganish, xalqaro tajribani o'zlashtirish hamda zamonaviy boshqaruv usullarini



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, magistratura orqali olingan bilimlar xodimlarning innovatsion yondashuvlarini rivojlantirib, ularni kasbiy faoliyatda samarali qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi.

Bundan tashqari, magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitish bojxona organlarida ilmiy asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish, kadrlar zaxirasini mustahkamlash hamda rahbarlik lavozimlariga munosib kadrlarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, bojxona xizmatida xodimlarni magistratura darajasida o‘qitish zarurati dolzarb va strategik ahamiyatga ega.

Biroq, Bojxona institutida mavjud imkoniyatdan kelib chiqib magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitiladigan tinglovchilar soni bojxona organlari maqsadlari uchun yetarli emasligi sababli, xodimlarni boshqa ta‘lim muassasalarida o‘qitish zarurati yuzaga keladi.

Bu esa o‘z navbatida xodimlarni boshqa ta‘lim muassasalarida magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitishning huquqiy asoslarini yaratishni taqazo etadi. Shundan kelib chiqib, muallifning ilmiy asoslangan takliflari asosida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasi

va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”

PQ-122-son

qarori

2-ilovasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizamning 88-bandida huquqiy asoslar yaratilgan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarga asosan xalqaro va respublika miqyosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishish maqsadida xodimlarni pul va oziq-ovqat ta‘minoti saqlangan holda bojxona organlari ixtiyorida qoldirib,



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

O‘zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning oliy ta’lim muassasalariga va tashkilotlariga magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qishga yuborish hamda bojxona organlari ixtiyorida bo‘lgan davrlarni xodimning umumiy xizmat stajiga qo‘shish tartibi joriy etilgan.

Natijada 2022-2025-yillar davomida 15 nafar xodim nufuzli xorijiy ta’lim muassasalariga, 67 nafar xodim respublika oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichiga o‘qishga yuborilgan hamda o‘qishni muvaffaqiyatli tamomlab, bojxona organlarida yuqori va teng lavozimlarga tayinlangan.

Mazkur xodimlarning bilim va tajribalaridan samarali foydalanish hamda bojxona organlariga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish maqsadida Bojxona qo‘mitasining 2025-yil 2-avgustdagi “Chet davlatning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborish hamda xorijiy ta’lim muassasalarida tahsil olgan, xalqaro tashkilotlarda tajriba orttirgan bojxona organlari xodimlarining faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 175-sonli buyrug‘i qabul qilinib, Bojxona qo‘mitasi raisi rahbarligida xorijiy oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan 14 nafar xodimlardan iborat “Bojxona tashabbuskorlari kengashi” tashkil etilgan.

Bugungi kunga qadar kengash tomonidan bojxona organlari ma’muriyatchiligini takomillashtirish va ilg‘or xorijiy tajribalarni bojxona organlari faoliyatiga joriy etish yuzasidan muhim taklif va tavsiyalar qo‘mita rahbariyatiga taqdim etilgan va ular asosida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrda “Bojxona ma’muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-250-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 3-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 560-son qarori, Iqtisodiyot va moliya vazirining “Davriy bojxona to‘lovlarini to‘lash grafigini to‘ldirish tartibi



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida'gi buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 12-dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3724) kengashning takliflari asosida ishlab chiqilgan. O'tkazilgan tahlillar xodimlarni magistratura mutaxassisligi bo'yicha respublika va xorijiy ta'lim muassasalarida o'qitish bojxona organlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi.

Xususan, respublika ta'lim muassasalarida o'qitish milliy qonunchilik, mahalliy sharoit va bojxona tizimining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish imkonini beradi. Bu esa xodimlarning amaliy faoliyatga tez moslashishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, xarajatlarning nisbatan kamligi va o'qitish jarayonining qulay tashkil etilishi ham muhim afzallik hisoblanadi.

Xorijiy ta'lim muassasalarida o'qish esa ilg'or xalqaro tajribani o'zlashtirish, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va innovatsion texnologiyalar bilan tanishish imkonini beradi. Bundan tashqari, xorijda o'qish xodimlarning til bilish darajasini oshiradi va global fikrlashni shakllantiradi.

Umuman olganda, magistratura bosqichida xodimlarni ham respublika, ham xorijiy ta'lim muassasalarida o'qitish tizimini uyg'unlashtirish bojxona xizmatida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, bugungi kun sharoitida bojxona tizimida xodimlarning kompetensiyasini oshirishda doktorantura va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish ham muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda bojxona organlari oldida turgan vazifalarni samarali bajarish yuqori malakali, ilmiy salohiyatga ega va innovatsion fikrlaydigan kadrlarni talab etadi. Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy takliflarni amalga oshirish bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz:



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Birinchidan, doktorantura tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur bo‘lib, bunda ilmiy mavzular bo‘jxona tizimidagi dolzarb amaliy muammolar bilan uzviy bog‘lanishi lozim. Bu esa ilmiy izlanishlarning amaliy ahamiyatini oshiradi hamda xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyati va amaliy ish jarayonlari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali doktorantlarning real amaliy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir.

Uchinchidan, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron resurslar va ilmiy ma‘lumotlar bazalaridan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratish zarur.

To‘rtinchidan, ilmiy rahbarlik tizimini takomillashtirish, yuqori malakali ilmiy rahbarlarni jalb etish va mentorlik tizimini rivojlantirish doktorantlarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy ilmiy muassasalar bilan qo‘shma tadqiqotlar olib borish va akademik almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish orqali ilg‘or tajribani o‘zlashtirish mumkin.

Oltinchidan, ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, ya‘ni ilmiy ishlanmalarni bo‘jxona faoliyatiga tatbiq etish samaradorligini oshirish lozim.

Yettinchidan, yosh olimlar va doktorantlarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash, grantlar va stipendiyalar tizimini kengaytirish ilmiy faoliyatni rag‘batlantiradi.

Sakkizinchidan, raqamli ilmiy muhitni rivojlantirish orqali ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, masofaviy hamkorlik va onlayn ilmiy platformalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, bo‘jxona tizimida xodimlarning kompetensiyasini oshirishda doktorantura va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish muhim



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalishlarni takomillashtirish va uning huquqiy asoslarini yaratish orqali yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlash, bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda davlat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 10-oktabrdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-502-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3995-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-122-son qarori.
4. Bojxona qo‘mitasining 2025-yil 2-avgustdagi “Chet davlatning oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga yuborish hamda xorijiy ta‘lim muassasalarida tahsil olgan, xalqaro tashkilotlarda tajriba orttirgan bojxona organlari xodimlarining faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 175-sonli buyrug‘i.
5. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi).
6. Bojxona qo‘mitasining “Bojxona xodimi” axborot tizimi ma‘lumotlari.
7. Bojxona qo‘mitasining statistik ma‘lumotlari.